



NOGIRONLIGI BOR TALABA-YOSHLAR IJTIMOIIY FAOLLIGINI
OSHIRISHDA IJTIMOIIY INSTITUTLARNING O'RNI.

Rashidova Muxlisa Qurbon qizi

O'zMU Ijtimoiy Fanlar Fakulteti

Huquqiy Fanlar Kafedra 2-kurs magistranti

+99890 022 48 78

Annotatsiya. *Nogironligi bor talaba-yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishda ijtimoiy institutlarning o'rni. Ushbu mavzu doirasida nogironligi bor talabalarni ijtimoiy faoligini oshirishda Oliy ta'lim tizimida olib borilayotgan yangidan-yangi islohotlar, tashabbuslar va nogironligi bor shaxslarni ijtimoiy hayotga tayyorgarligini oshirish bo'yicha ijtimoiy institutlarning o'rni va roli haqida fikr-mulohazalar yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *nogironligi bor shaxslar, ijtimoiy institutlar, Ijtimoiy Himoya Agentligi.*

Annotation. *The role of social institutions in increasing the social activity of student-youth with disabilities. Within the framework of this topic, New reforms in the higher education system in increasing the social activist of students with disabilities, initiatives and feedback on the role and role of social institutions in increasing the readiness of persons with disabilities for social life.*

Keywords: *persons with disabilities, social institutions, Social Protection Agency.*

Ijtimoiy institutlar - bu jamiyatning ishlashini ta'minlaydigan jamiyatdagi muvozanatini saqlab turuvchi asosiy vositalardan desam mubolag'a bo'lmaydi. Ijtimoiy institut bu vaqt o'tishi bilan rivojlanib borgan va jamiyat uchun muhim bo'lgan muammolarning echimini ta'minlaydigan odamlarning o'zaro ta'sirini ta'minlaydigan jamiyat hayotini tashkil etish shaklidir. Bu umumlashtirilgan tushuncha, ya'ni ijtimoiy institutni bitta oila yoki davlat, shuningdek, jamiyatning har qanday qatlamlari deb atash mumkin emas. Ular jamiyatning tayanchi bo'lib ishlaydi. Ijtimoiy institutlarsiz jamiyat iqtisodiyot, akademiya yoki munosabatlar nuqtai nazaridan muvaffaqiyatga erisha olmaydi. Ijtimoiy institutlar o'zaro umidlarga asoslangan o'zaro munosabatlarning barqaror modellarini yaratadi va umumiy barqarorlikka hissa qo'shadi.

Ijtimoiy institut - bu ijtimoiy normalar va ijtimoiy rollarning o'zaro bog'liq tizimi bo'lib, ular tashkil etilgan va jamiyatning asosiy ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga yordam beradigan xatti-harakatlar modellarini ta'minlaydi³⁶ Asosiy ijtimoiy institutlar institutlar sirasiga oila, iqtisodiyot, din, ta'lim, hukumat yoki davlat kiradi. Har bir ijtimoiy institut nogironligi bor shaxslar shuningdek ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamini o'rgangan

³⁶ Geogle tarmog'idan olindi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



holda mahallardan tortib to boshqaruv organlariga qadar kerakli ro’yhatlar shakllantirilib, har birining muomolari o’rganilib bartaraf etilmoqda.

Shavkat Mirziyoyevning farmoni bilan Prezident huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi. Farmonda davlat tomonidan aholini manzilli himoya qilishning asosiy yo‘nalishlari belgilab berilgan:

- kompleks yondashuv asosida **professional ijtimoiy himoya tizimini** joriy qilish;
- ijtimoiy himoya tizimi samaradorligi va manzilliligini oshirish orqali **aholining ko‘makka muhtoj qatlami ijtimoiylashuvini ta‘minlash**;
- ijtimoiy himoyani mahalla darajasigacha tashkil etish, og‘ir hayotiy ahvolga tushib qolgan aholiga **individual yondashuvga muvofiq** ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yish;
- aholining ijtimoiy sug‘urta mexanizmlari bilan qamrab olinishini kengaytirish;
- xavf guruhlarga tushib qolgan oilalarni aniqlash va kompleks ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish orqali ularning og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolishining oldini olish;
- **nogironligi bo‘lgan shaxslarning hayot kechirishi uchun qulay muhit yaratish.**

Joriy yil fevral oyida davlatimiz rahbari tomonidan videoselekt yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Videoselektor yig‘ilishida Prezidentimiz ijtimoiy himoya tizimini yaxshilash bo‘yicha infratuzilmadan boshlab davlat tashkilotlarining veb-saytlarigacha, aholining bandligini ta‘minlashdan to bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishgacha, nikoh qurishdan boshlab yoshga, salomatlikka doir nafaqalargacha bo‘lgan masalalar yuzasidan barcha muammolarni tahlil qilib, aniq yechim, mablag‘ va mas‘ullarni belgilab berdilar. O‘zbekiston Nogironlar huquqlari bo‘yicha konvensiyani ratifikatsiya qilib, o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarishi yuzasidan aniq vazifalar belgilandi. Ayollar, bolalar, ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarning huquq va manfaatlarini ta‘minlashga qaratilgan mukammal milliy tizimni yangi sifat bosqichiga olib chiqish borasida muhim qadam qo‘yildi.

Nogironligi bor shaxslarni ijtimoiy hayotga mostlashtirish va ijtimoiy faoligini oshirish uchun davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan bir qator farmon va qarorlar ishlab chiqilmoqda va jamiyatga tadbiiq etilmoqda. Birgina oliy ta‘lim sohasini oladigan bo‘lsak, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 20 oktyabrdagi “O‘zbek imo-ishora tili va brayl alifbosini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-407-son qarori³⁷ga muvofiq 2023 yil 1-yanvardan boshlab davlat oliy ta‘lim muassasalarining magistratura mutaxassisliklariga hamda oliy ta‘limdan keyingi ta‘lim ixtisosliklariga o‘qishga qabul qilishda ko‘rish, eshitish va nutqida nuqsoni bo‘lgan shaxslar tomonidan xorijiy tilni bilish bo‘yicha milliy yoki unga tenglashtirilgan xalqaro sertifikatni taqdim etish talab etilmaydi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy hayotda nogironligi bor shaxslarni va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini himoya qilish uchun sezilarli darajada keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda.

³⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 20 oktybrdagi “O‘zbek imo-ishora tili va brayl alifbosini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-407-son Qarori. www.lex.uz



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Bu sa'y-harakatlar natijasi o'laroq nogironligi bo'lgan shaxslar oliy ma'lumotli bo'lishmoqda, ma'lum bir kasb-hunar va asosiysi ijtimoiy hayotda o'z o'rinlariga, ijtimoiy, huquqiy, siyosiy bilimlarga erishmoqdalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi "Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-82-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 20 oktybrdagi "O'zbek imo-ishora tili va brayl alifbosini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-407-son Qarori.
3. Geogle ijtimoiy tarmog'idan olindi.

